

# O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (2023 yil yanvar-aprel oylari)

## 1. Sanoat mahsuloti

2023-yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalarini tomonidan **179,0** trillion so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **105,0** foizni tashkil etdi.

Shu bilan birga, sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida ishlab chiqaradigan sanoatning ulushi 81,4 foizni, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati 9,8 foizni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 8,3 foizni, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish 0,5 foizni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi o'sishining asosiy omili bo'lib tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida 1,7 %ga, qayta ishlash sanoati korxonalarida ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatida 5,2 %ga, hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatida fizik hajm indeksi 7,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqaradigan sanoatida (2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 135,0 %), shuningdek, elektr uskunalari ishlab chiqarish qayta ishlash sanoatida (166,9 %) hajmi oshdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish (2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 62,3 %), avtotransport vositalari, tirkamalar va yarim tirkamalar (2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 98,8 %) kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish (2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 96,6 %) hajmi pasayishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida ishlab chiqarish xajmining o'zgarishiga xom neft va tabiiy gaz qazib olish sanoatida (2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 100,7 %) ishlab chiqarish hajmining o'sishi sabab bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 108,9 %ni tashkil etdi, shu bilan birga ularning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining umumiy hajmidagi ulushi 28,9 %ga yetdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **40,2** %ni, nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi esa **59,8** % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 2022 yilning mos davriga nisbatan 113,4 % ni, nooziq-ovqat tovarlari o'sish sur'ati esa 106,0 % ni tashkil etdi.

## 2. Inflyatsiya darajasi

2023-yilning yanvar-aprel oylarida respublika iste'mol sektoridagi inflyatsiya darajasini aks ettiruvchi iste'mol narxlari indeksi (INI) **103,3 %** ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha INI 104,7 % ni, nooziq-ovqat mahsulotlar bo'yicha 102,2 % ni, xizmatlar bo'yicha 102,2 % ni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-aprelida yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari narxlari o'zgarishlarining ta'siri 2,0 foiz darajasini (keyingi o'rinlarda f.d.) tashkil etdi. Ularning hissasiga kuzatiladigan barcha tovarlar va xizmatlar ta'sirining 61,0 % i to'g'ri keldi. Nooziq-ovqat mahsulotlar narxlarining ushbu davrda yig'ma ko'rsatkich o'sish sur'atiga ta'siri 0,76 f.d. (23,5 %) va xizmatlarda 0,51 f.d. (15,5 %) kuzatildi.

O'zR MIIT-2018 bo'limlari orasida 2023-yilning yanvar-aprelida oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar, restoranlar va mehmonxonalar xizmatlari INI 104,8 % ni, sog'liqni saqlash sohasida 104,2 % ni, dam olish, sport va madaniyat sohasida 103,8 % ni, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlarda 103,4 % ni, spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlari bo'yicha 102,9 % ni, transport sohasida 102,7 % ni, uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish sohasida 102,4 % ni, kiyim va poyabzal – 101,4 % ni tashkil etdi.

Bo'limlarning aholi iste'mol xarajatlari tarkibidagi salmoq vaznlarini hisobga olgan holda, 2023-yil yanvar-aprelidagi yig'ma INI o'sish sur'atiga oziq-ovqat mahsulotlari va spirtsiz ichimliklar narxlari o'zgarishlarining ta'siri 1,91 f.d. ni, sog'liqni saqlash sohasida 0,28 f.d. ni, transport sohasida 0,23 f.d. ni, uy-ro'zg'or buyumlari, maishiy texnika va uy joylarga kundalik xizmat ko'rsatish sohasida 0,17 f.d. ni, kiyimlar va poyabzallar hamda turar joy xizmatlari, suv, elektr, gaz va boshqa yonilg'i turlari 0,16 f.d. dan, maishiy va boshqa tovarlar va xizmatlar sohasida 0,15 f.d. tashkil etdi. Boshqa bo'limlarning ta'siri juda past darajada kuzatildi.

## 3. Qurilish ishlari

2023-yilning yanvar-aprel oyida **41672,2** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati **104,6 %**ni tashkil etdi. Qurilish ishlarining umumiy hajmining 9408,5 mlrd. so'mi yoki 25,2 % yirik korxonalar va tashkilotlar, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 24877,1 mlrd. so'm yoki 59,7 %, norasmiy sektor sub'ektlari tomonidan 6276,6 mlrd. so'm yoki 15,1 % bajarildi.

## 4. Chakana savdo tovar aylanmasi

2023-yilning yanvar-aprel oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **81 391,3** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,4 %** ga o'sdi.

Yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi 2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 12,9 % ga o'sdi, bu esa umumiy savdo hajmining 17,2 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes sub'ektlarining chakana tovar aylanmasi

2022-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 5,0 % ga o'sgan. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 82,8 % ni, shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 10,6 % ulush bilan 8 619,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### **5. Tashqi savdo aylanmasi**

2023-yilning yanvar-aprel oylari yakuni bilan respublikaning tashqi savdo aylanmasi **19 577,0** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 2 316,6 mln. AQSh dollariga yoki 13,4 % ga ko'paydi. Eksport hajmi **7 660,8** mln. AQSh dollariga yetdi, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,2 % ga ko'paydi (*Nomonetar oltin hisobiga ko'paydi va uning hajmi 3 060,9 mln. AQSh doll.* 2022-yilning shu davriga nisbatan – 1,4% ga ko'paygan). Import **11 916,2** mln. AQSh dollariga yetdi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,6 % ga o'sdi.

Eksport tarkibida quyidagi guruhlarda o'sish kuzatildi, jumladan: ichimliklar va tamaki o'tgan yilning mos davriga nisbatan - 76,9 m. (16,9 mln. AQSh doll.)ga, kimyo mahsulotlari va ulardan tayyorlangan mahsulotlar 2,1 % (7,6 mln. AQSh doll.)ga, turli xil tayyor buyumlar 22,8 % (69,0 mln AQSh doll.)ga hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 20,3 % (79,8 mln. doll.)ga ko'paydi.

Import tarkibida quyidagi guruhlarda ham o'sish kuzatildi, jumladan: mashinalar va transport asbob-uskunalar – 33,3 % (1 182,7 mln. AQSh doll.)ga, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 51,0 % (296,5 mln. AQSh doll.)ga hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar – 10,5 % (150,7 mln. AQSh doll.)ga to'g'ri keladi.

### **6. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari**

2023-yilning yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **133,0** trln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **11,6** % ga o'sdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishida moliyaviy xizmatlarning 18,4 % ga (ko'rsatilgan umumiy bozor xizmatlari hajmining o'sishidagi ta'siri 4,3 punkt), transport xizmatlari 11,7 %ga (o'sishdagi ta'siri 2,6 punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 23,7 %ga (o'sishdagi ta'siri 1,5 punkt), ta'lim sohasidagi xizmatlarning 16,5 %ga (o'sishdagi ta'siri 0,7 punkt) o'sishi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning eng katta hajmi moliyaviy xizmatlar (31,9 trln.so'm, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 118,4 %), transport xizmatlari (31,6 trln.so'm, 111,7 %) va savdo xizmatlari (31,4 trln.so'm, 105,8 %)ga to'g'ri keladi.

### **7. Korxonalar va tashkilotlar soni**

2023-yil 1-may holatiga respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **488,8** mingtani (*fermer va dehqon xo'jaliklaridan*

*tashqari*) tashkil etdi, ulardan kichik korxonalar va mikrofirmalar 422,3 mingta. Hududlar bo'yicha joylashgan eng ko'p soni esa Toshkent shahar (94 508 ta), Samarqand (44 297 ta), Toshkent (45 515 ta), Farg'ona (42 706 ta), Qashqadaryo (37 777ta), Andijon (32 848 ta) va Buxoro (29 697ta) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p soni savdo sohasida – 151 406 ta, sanoat sohasida – 76 236 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida – 42 199 ta, qurilish sohasida – 36 009 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 27 889 tani tashkil etadi.

2023-yil yanvar-aprel oyida respublikada 31,0 mingta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, shundan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 30,2 mingtani tashkil etdi.

2023-yil 1-may holatiga ko'ra respublikada xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 12 989 tani tashkil etdi. Ulardan 5 057 tasi qo'shma korxonalarni va 7 932 tasi xorijiy korxonalarni tashkil etgan.